

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA XORIJIY TILLARNI
O'RGAТИSHNING AHAMIYATI**

Alimqulova Gulzoda Abdulla qizi

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti Ingliz II fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishida o'qitish Xorijiy til (ingliz tili) 2 bosqich 2202-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Z ubaydova Nilufar Ne'matullayevna

*Samarqand Davlat Chet tillari Instituti Ingliz tili adabiyoti kafedrasи
Katta o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan va jisman yetuk bo'lмаган bolalarning xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini orttirish va ularning til darajasini oshirish haqida ma'lumotlar berilgan. Ularga ta'lim berishda qanday metod va ta'limiy o'yinlardan foydalanish qulayligi, ta'limiy texnikalar va boshqa kerakli bo'lgan ma'lumotlar ham keltirilgandir. Har bir insonning bu hayotda ilm olishga va uning ortidan erishadigan yutuqlarga munosibdir va shuning uchun ham pedagoglar uchun ayrim tavsiyalarni ham kiritilib o'tilishi joiz deb o'ylandi.

Kalit so'zları: imkoniyati cheklangan, interaktiv, didaktik, o'yin turlari, tajriba qilish, didaktik o'yin turlari, kinestetik, demotivatsiya, vizual o'rjanuvchi.

ANNOTATION: This article provides information on how to increase the interest of children with disabilities and physically immature children in foreign languages and increase their language level. What methods and ease of use of educational games, educational techniques and other necessary information are also provided for teaching them. Every person deserves to learn in this life and the achievements that will be achieved after it, and therefore it was thought that some recommendations for pedagogues should also be included.

Keywords: disabled, interactive, didactic, game types, experimenting, didactic game types, kinesthetic, demotivation, visual learner.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

“Alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi (PQ-4860, 13.10.2020 y). Bu muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning qaroriga muvofiq ayrim ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa yosh pedagoglarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda buning hisob ham olinmoqda. Ya’ni “Inklyuziv” ta’limni jamiyatimizda yo’lga qo'yish ishlari keskin rivojlanmoqda. Jumladan: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nuqsonli bolalarga ham bilim berish va jisman sog'lom bo'lgan bolalar bilan birgalikda amalga oshirish maqsadida Oliy ta'lim muassasalarida shunga oid fanlar kiritildi. Misol tariqasida shuni olish mumkinki, Qo'qon Universiteti xususiy bo'lishiga qaramasda u yerda “Inklyuziv ta'lim” fani yo'lga qo'yilgan bo'lib, yangi MTT tarbiyachilarini bu borada yana ham bilimli qilib ta'lim berishmoqda.

Asosiy muammolardan biri shundaki, bizning jamiyatimiz hali bu ta'limga unchalik ham tayyor emas va bu borada yetarlicha kadrlarni yetkazib berish biroz mamlakatimizdagи dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Endi biz Xorijiy tillarni ularga qay yo'sinda o'rgatishimiz va ular bilan qanday usulda ishlashimiz ham o'ylantiradigan savollardan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy tillarni o'rgatishda aynan biz eski ammo samarali bo'lgan usullardan foydalansak bo'ladi. Masalan: “Direct” deb nomlangan metod bu birinchi bo'lib qo'llangan metod bo'lishiga qaramasdan, o'zlashtirishi sust bo'lgan va jisman nosog'lom bolalarda ancha samaralidir. Yana biri “Audio-lingual” metod ham juda qiziqlaridir va bolalarga yaxshi talaffuz qilishni o'rgatadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning hammasida aslida yangiliklarni o'rganishga va izlanishga imkoniyatlari turlicha holatda bo'ladi. Sababi ularning imkoniyatlari turli tarafdan cheklangan bo'ladi. Masalan, kimdirda eshitish, kimdirda gapirish yoki harakat taraflama cheklangan bo'lishi mumkin. Ahamiyatli bo'lish kerakki, imkoniyati cheklangan bolalar deb, ularga bilim berish salohiyatini kamaytirmaslik yokida umuman tashlab qo'ymaslik kerak. Albatta, imkoniyati cheklangan bolalar alohida o'qitish va o'rganish metodlariga, alohida muhit va individual yondashishga muhtoj bo'lishadi. Ammo endi “Integrativ” usuldagи ta'lim jarayonidan “Inklyuziv” ta'lim jarayoniga o'tar ekanmiz, malakali

va har taraflama yetuk kadrlarni yetkazish bo'yicha barcha Oliy ta'lim muassasalarida Psixologiya va shunga oid fanlardan ta'lim berish yo'lga qo'yilgan. Xorijiy tillarni ham o'rgatish bo'yicha turlicha bo'lgan metodlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan yana biri "Visual", "Kinesetik" and "Tictile" kabi metodlar ancha foydalidir. Sababi, shu turdagи bolalarda rasmlar, raqamlar, ushlab tegib ko'rish va ko'rsatilgan harakatlar orqali tez o'rghanishadi. Keltirilgan misollar va metodikalardan shuni xulosa qilosh mumkinki, imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan, bolalar chet tillarini o'rgana olishadi. Faqatgina bunda yuqorida keltirilgan talablar birgalikda qo'llanishi va maxsus iqtisoslashtirilgan ustozlarni jalg qilinish kerakligi e'tiborga olinishi kerak. Ayniqsa, ingliz tili o'qituvchisi har bir dars uchun beriladgan ma'lumotlarni ko'rgazlamalar va kerakli o'quv qo'llanmalar bilan boyitsagina, yaxshi natijalar ko'rsatilishi mumkin.

Keltirilgan misollar va metodikalardan shuni xulosa qilosh mumkinki, imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan, bolalar chet tillarini o'rgana olishadi. Faqatgina bunda yuqorida keltirilgan talablar birgalikda qo'llanishi va maxsus iqtisoslashtirilgan ustozlarni jalg qilinish kerakligi e'tiborga olinishi kerak. Ayniqsa, ingliz tili o'qituvchisi har bir dars uchun beriladgan ma'lumotlarni ko'rgazlamalar va kerakli o'quv qo'llanmalar bilan boyitsagina, yaxshi natijalar ko'rsatilishi mumkin.

ELEKTRON MANBAALAR.

1. <https://yuz.uz>
2. <https://surxontongi.uz>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J Postgrad Med. Understanding your student: using the VARK model. 2014 AprJun;60(2):183-6. doi: 10.4103/0022-3859.132337.
2. Alina Nicoleta Padurean. (2014). Teaching English Language to Children with Special Educational Needs. "Aurel Vlaicu", University of Arad, 77 Revolutiei Boulevard, Arad, Romania. TEM Journal – Volume 3 / Number 4 / 2014.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. Azizova D.A. Chet tilini cheklangan bolalarga o'rgatishning ahamiyati va usullari.Maqola. "Raqobatdosh kadrlar tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023-yil, 22 – noyabr. 189-191 betlar